

Viana do Castelo Politexnika universitetida Loyiha hamkorlarining 4-chi uchrashuvi boshlandi

Joriy yilning 18-iyuldan 23 iyulgacha, Portugaliyaning Viana-du-Kastelo politexnika institutida, Erasmus+ CBHE loyihasi doirasida “MechaUz – innovatsion g‘oyalar va raqamli texnologiyalar orqali O‘zbekistonda bakalavriatda mexatronika va robototexnikani modernizatsiya qilish” 2-trening va loyiha-hamkorlarning 4-uchrashuvi bo‘lib o‘tmoqda.

18 iyul kuni loyiha hamkorlari institutda loyiha faoliyati bilan bog‘liq juda muhim masalalar va jihatlarni muhokama qilish uchun yig‘ilish o‘tkazdilar.



www.polito.uz







Uchrashuv IPVC prezidenti Karlos Rodriguesning kirish nutqi bilan boshlandi. Uning ta'kidlashicha, Yevropa va O'zbekiston universitetlarining ushbu loyiha doirasidagi hamkorligi loyiha faoliyati yakunlangan davrda ham tarmoqni barqaror rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

IPVC vakillari loyiha bilan bog'liq asosiy masalalarni muhokama qilish, o'qituvchilar va muhandislar uchun treninglar, shuningdek, madaniy tadbirlarni o'z ichiga olgan keng ko'lamli tadbirlar kun tartibini tayyorladilar. Boshqa vakillar ham Ish paketlarining hozirgi holati va loyihaga oid

boshqa masalalar haqida juda foydali taqdimot qildilar.

TTPU vakili Seyran Asanov ham, Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida tashkil etilgan i-Labs haqida ma'lumot berdi. Taqdimotlarda qayd etilishicha, loyiha doirasidagi laboratoriyalarni ishlab chiqishda barcha OTMLar yaxshi natijalarga erishgan.

To'liq matn bu [yerda](#)